

**ZILZILA BILAN BOG'LIQ FAVQULODDA VAZIYATLARNING OLDINI
OLISHDA AHOLINI TAYYORLASH TIZIMINING TASHKILIY VA HUQUQIY
ASOSLARI**

*Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti
o'qituvchilari*

**O.Rajabov
U.Payzullaev**

Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi shu mamlakat hududida sodir bo'ladigan tabiiy ofatlarning xususiyati va ko'lamiga bog'liqdir. Xozirgi kundalik xayotda yer sharining turli va ko'p nuqtalarida avariylar, tabiiy ofatlar va texnogen tusdagi ofatlarning sodir bo'lishi haqidagi ma'lumot va axborotlarga tez-tez ega bo'layapmiz. Shulardan biri bo'layotgan zilzila - tabiatning eng xavfli hodisalardan biri bo'lib, u yuzaga keltiruvchi iqtisodiy zararlari va insonlar halokati bo'yicha tabiiy ofatlar ichida birinchi o'rinni egallaydi. Zilzila to'g'risida ma'lumotlarni qayd qilish bundan 4 ming yil avval boshlangan bo'lib, XXI asrga qadar 700 ga yaqin halokatli zilzilalar, shundan 82 tasi XX asrda sodir bo'lganligi qayd etilgan. Favqulodda vaziyatlar ichida tabiiy xususiyatli bo'lgan, zilzila o'zining ayanchli, talofatli va og'ir oqibatlari bilan alohida axamiyat kasb etadi. Zilzila vaqt, zamon va makon tanlamaydigan hamda uni to'liq oldini olib bo'lmaydi, bu ofat bir necha soniyada yuzlab, minglab insonlar qurbon bo'lishiga va juda katta miqdordagi iqtisodiy zararga olib kelishi mumkin. Zilzila nafaqat insonga, balki jamiyatga, davlatga va butun borliqqa tahdid soladi. Shu sababli, zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini kamaytirish tadbirlari barcha davlatlar va butun dunyo hamjamiyatini tashvishiga solib, hal qilish zarur bo'lgan dolzarb vazifa hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi umumiyligi ma'muriy xududining 70-80 % seysmik faol zonada joylashgan bo'lib, ushbu xavfli hududlarda istiqomat qiladigan aholining barcha qatlamlari zilzila tabiatini, uning yuzaga kelishini va tarqalishi tushunchalarini bilishi, zilzila talofatlarini kamaytirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar va harakatlar ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Shu sababli, mamlakatimizda davlat siyosati darajasida aholini zilzilaga tayyorlash zilziladan oldin ko'riladigan choralar, zilzila sodir bo'lgandagi harakatlar va zilziladan keyingi tadbirlar tartib va bosqichlari bo'yicha tashkil etilgan va olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi - Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risidagi, - Fuqaro muhofazasi to'g'risidagi, - O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash to'g'risidagi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyuldagisi - O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududlarining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4794-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 senyabrdagi Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risidagi 754-sonli, 2020 yil 26 avgustdagisi - "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi to'g'risida"gi 515-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash, respublika ta'lim muassasalarida

favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ular sodir bo‘lgan to‘g‘ri harakat qilishga o‘qitishnitashkil etish va ta‘limning uzluksizligini ta‘minlash hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 avgustdagi -Aholining favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarligini oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi 650-sonli qaroriga asosan, 2018 yilning yanvaridan har bir mahalla fuqarolar ig‘inlarida - Mahalla fuqaro muhofazasi yaratilishi va faoliyatini tashkillashtirish belgilangan bo‘lib, quyidagilar - Mahalla fuqaro muhofazasining asosiy vazifalari hisoblanadi: -mahalliy davlat hokimiyati organlari va tashkilotlariga fuqarolar yig‘inlari darajasida fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikka doir vazifalarni bajarishda ko‘maklashish; -aholini favqulodda vaziyatlarda, shuningdek harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavf-xatarlardan himoyalanish usullariga o‘qitish va tayyorlash;

-favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish tadbirlariga aholini ixtiyoriy ravishda jalg qilishga ko‘maklashish.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lmagan aholini kuchli zilzila bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash shakllariga to‘xtaladigan bo‘lsak, amaldagi tizimda mahalla fuqarolar yig‘inlari orqali, aholi o‘rtasida suhbatlar olib borish, o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazish va fuqaro muhofazasi sohasidagi malakali o‘qituvchilar tomonidan hududlarga borib seminar treninglar olib borilishi yo‘lga qo‘yilgan. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari yordamida aholiga ma‘lumot berib borish tizimi joriy qilingan. Xorijlik fuqarolar tomonidan zilzila vaqtida tegishli harakat va tadbirlarni amalga oshirish O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlar tashrif davomida, ularga xizmat ko‘rsatuvchi jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri harakat qilish bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish, yo‘riqnomalar, buklet va eslatmalarni tarqatish orqali tayyorgarlikdan o‘tkaziladi.

Bu borada ilg‘or xorij tajribasiga to‘xtalib o‘tsak. Xususan Yaponiya aholini va hududlarni seysmik xavfdan himoya qilish bo‘yicha dunyoda eng ilg‘or tajribaga ega bo‘lib zilzilaga chidamli bino va inshootlar qurish, innovatsion texnologiyalar asosida seysmik xavfni baholovchi, zilzilalarni proqnoz qiluvchi, aholini habardor qiluvchi tizimning samarali ishini ta‘minlash bilan bir qatorda mamlakat aholisini hamda ish bilan yoki turist bo‘lib kelgan horijiy davlatlar fuqarolarini zilziladan oldin, zilzila vaqtida, zilziladan so‘ng xarakatlanishga tayyorlash masalasiga ham katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Yaponiyada kuchli zilzilalar sunamilar, toshqinlar, yong‘inlar va boshqa turdagilari tabiiy ofatlarni keltirib chiqaradi. SHU boisdan yaponlar bulardan saboq olib bunday sharoitda omon qolish uchun doimiy izlanishda va harakatda bo‘ladilar. SHular sababli Yaponiyada o‘ziga xos xavfsizlik madaniyati shakllangan. Tokio Yong‘in xavfsizligi departamentining internet saytlari va elektron pochta orqali favqulodda vaziyatlarga jumladan, zilziladan oldin, zilzila vaqtida zilziladan so‘ng harakatlanish qoidalari bilan Tokio shahri aholisini va uning mehmonlarini, jumladan rasmiy ish bilan, tashrif bilan xamda mustaqil turist sifatida mamlakatda vaqtincha bo‘lib turgan xorijiy mamlakatlar fuqarolarini ham tanishtirib boriladi. 2015 yildan boshlab Yaponiyada, hususan Tokio shahrida ekstremal holatlarda harakatlanishning yangi qoidalari joriy etilgan - BOSAI, yapon tilidan tarjima qilinganda -Favqulodda vaziyatlar bo‘yicha qo‘llanma ma‘nosini

bildiradi. Ushbu qo'llanmaning ingliz tilidagi shakli ham mavjud bo'lib aeroportlar, temir yo'l stansiyalar, avtovokzallar, mehmonxonalar, elchixonalar va boshqa tegishli joylarga tarqatilgan.

Mazkur qo'llanmada favqulodda vaziyatlar, xususan zilziladan oldin doridarmoq (aptechka), oziq-ovqat zaxiralari, birinchi navbatdagi zaruriy ashayolar hamda omon qolish uchun boshqa foydali narsalarni sotib olib ularni zahirasini tayyorlab qo'yish bo'yicha maslahatlar berilgan. Shuningdek, qo'llanmada zilzila vaqtidagi zaruriy xarakatlar tartibi bayon etilgan. Jumladan, isinish usullari, qo'l ostingizdagи mavjud materiallardan oskolkalarga qarshi kiyim va poyavzallarni tayyorlash usullari hamda maxsus sharoitlarda xarakat qilish bo'yicha boshqa tavsiyalar ham berilgan. Hozirda O'zbekistonda ham aholini zilzilaga tayyorlash bo'yicha o'quv materiallari elektron va raqamlashmaganligi, aholining barcha qatlamiga yetkazilmasligi, ta'sirchanligi kamligi, multimedya vositalari yetishmasligi, raqamli televideniya imkoniyatlaridan foydalanilmayotganligi, maxsus vebsaytlar orqali aholini harakat qilishga tayyorlash bo'yicha innovation yondashuvlarning yetarli emasligi dolzarb muammolardan sanaladi.

Aholini tayyorlash tizimida zamонавиу ахборот texnologiyalari va kommunikasiyalari, yangi innovation g'oyalar asosida ta'sirchan mexanizmlarni qo'llash, elektron ta'lim platformasidan, undagi innovation ishlanmalardan keng foydalaniish zarur. Aholining barcha qatlamini zilzilaga to'g'ri harakatlanishga amaliy tayyorlashda mobil zilzila simulyatorlar orqali amaliy ko'nikmalarini oshirish lozim. Rivojlangan xorijiy davlatlarda aholini tayyorlashda internet texnologiyalari orqali masofaviy ta'lim keng qo'llanilmoqda. Masofadan o'qitish shakli vaqt va makonga qaramay, uzliksiz ta'lim olish va ma'lumot almashish tizimini yaratishga imkon beradi. Masofaviy ta'lim tizimi ijtimoiy mavqyeidan qat'iy nazar barcha insonlarga (maktab o'quvchilari, talabalar, fuqarolar va harbiy xizmatchilar, ishsizlar va boshqalar) teng imkoniyatlar beradi. mamlakatning barcha hududlarida va chet ellarda insonning bilim olish va ma'lumot olishni ta'minlaydi. Xorijda aholini tayyorlashda jamoat birlashmalari, nodavlat notijorat, xususiy tashkilotlar ishtiroki, mahalliy byudjet, soliqlar, sug'urta yig'imgilari va ko'ngilli xayriyalardan moliyalashtirilishi hamda qat'iy tartib, insonparvarlik, erkin intizom, tezkorlik tamoyillari ilg'or istiqbolli tajribalar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyuldagи - O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududlarining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4794-sonli Qarori,
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabrdagi -Aholini Favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risidagi 754-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 21 avgustdagи -Aholining favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 650-sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi - Texnogen, tabiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to‘g‘risidagi 455 – sonli qarori.
5. <http://www.fvv.uz> (Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги сайти).
6. <http://www.lex.uz> (Ўзбекистон Республикаси Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси).